Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 347

# IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING NAZARIY ASOSLARI

Umidjon Inomjonovich Nazirov*
*Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*
✉ nazirovsohzahon4@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Maqolada ijtimoiy adolat tamoyillarining huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy adolatni ta’minlashda huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar**

Ijtimoiy adolat, adolat tamoyili, tenglik, ijtimoiy tenglik, huquqiy davlat, inson huquqlari, inson qadr-qimmati, ijtimoiy mas’uliyat, imkoniyatlar tengligi, fuqarolik jamiyati

DOI: 10.5281/zenodo.23617303

Ijtimoiy adolat tamoyillarining nazariy asoslari qadimgi falsafiy qarashlardan tortib, hozirgi zamon siyosiy va huquqiy nazariyalarigacha bo‘lgan keng qamrovli bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘z navbatida yoshlar madaniyatini, jumladan huquqiy shaxsning mohiyati va uning asosiy xususiyatlari haqida falsafiy mulohaza yuritishni taqozo etadi.

Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishning dunyo tajribasiga e’tibor qaratish ham masalaning mohiyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi mamlakatlarda huquqiy tarbiya masalalari doimo jamoatchilikning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bunda huquqiy tarbiyaning ayni bir vaqtda o‘sib kelayotgan avlodga ham siyosiy, ham ma’naviy ta’sir ko‘rsatishiga alohida e’tibor qaratilgan. Aynan shu bois aholi, ayniqsa yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish vazifasi davlatimiz va jamoatchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasining dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, yoshlarning har bir yangi avlodi oldingi avlodlar tajribasini o‘rganib, yangi ijtimoiy munosabatlarni anglash, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi. Bu holat esa o‘z navbatida, huquqiy madaniyatni shakllantirishning yangi usul, shakl va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi” [1.5].

Yoshlarda qadriyatlarni qayta baholash, kattalarga nisbatan o‘zgacharoq, ya’ni ularda ehtiyojlar va ideallar, axloqiy meyorlar faol o‘zlashadi. Mazkur ijtimoiy guruhga shu toifa ichidagi muloqotga mo‘ljal qilish xosdir. Yoshlar o‘ziga xos qadriyatlarga ko‘ra, muloqot, mehnat, iste’mol, hordiq chiqarish kabi munosabatlar tizimi bilan farqlanadi, bu ular madaniyatining rivojlanishiga olib keladi. Jinsi, yoshi, ma’lumot darajasi, kasbiy bandlik sohasi, madaniysiyosiy manfaatlari va boshqalarga bog‘liq holda yosh turlari farqlanadi. Ta’lim turini tanlash va uni egallash, mehnat jarayoniga kirish, oilani shakllantirish, kasbiy jihatdan o‘sish va xizmat bo‘yicha ilgarilash kabilar yoshlarning asosiy muammolari bo‘lib hisoblanadi” [2.70] degan tarif berilgan.

Ijtimoiy nazorat nazariyasiga ko‘ra jamiyatning o‘z a’zolari xatti-harakatlarini tartibga solish mexanizmlarini o‘rganadi. Huquqiy normalar ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo‘lib, yoshlarda qonunga rioya etish orqali jamiyatda tartib va barqarorlikni saqlash tushunchasini shakllantiradi.

Eng muhim jihatlaridan biri fuqarolik jamiyati nazariyasi bo‘lib, unda fuqarolarning davlatdan mustaqil ravishda o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatini o‘rganadi.

Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini, tashabbuskorlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Motivatsiya nazariyasi esa shaxsning xatti-harakatlarini boshqaruvchi ichki va tashqi omillarni o‘rganadi. Yoshlarda qonunga rioya etishga ichki motivatsiyani (vijdon, mas’uliyat hissi) shakllantirish, nafaqat jazodan qo‘rqish orqali erishiladigan tashqi motivatsiyaga tayanishdan ko‘ra samaraliroqdir.

Ijtimoiy adolat barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini, teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini, shuningdek, har kimning mehnati, qobiliyati va ehtiyojlariga yarasha mukofotlanishi yoki qo‘llab-quvvatlanishini talab qiladi. Bu nafaqat formal tenglik, balki real hayotiy imkoniyatlardagi tenglikni ham nazarda tutadi.

Ijtimoiy adolat, ayniqsa, jamiyatning eng zaif qatlamlari (kambag‘allar, nogironlar, qariyalar, bolalar) manfaatlarini himoya qilishga, ularga munosib hayot kechirish uchun yetarli sharoit yaratishga qaratilgan. Bu “farq tamoyili” (J. Roulz)da o‘z ifodasini topgan.

Adolatsizlik, tengsizlik va kamsitishlar jamiyatda ijtimoiy keskinliklar, noroziliklar va mojarolarga olib keladi. Ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish esa bunday keskinliklarning oldini olishga, jamiyatda hamjihatlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy asoslari – bu yoshlarda nafaqat qonunlarni bilish, balki ularga hurmat bilan qarash, adolatga intilish, o‘z huquq va majburiyatlarini anglash, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va jamiyat hayotida faol, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini egallashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Bu esa huquqiy davlat va adolatli jamiyat qurishning mustahkam poydevorini yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Павловский В.В. Ювентология: проект интегративной науки о молодёжи. – М., 2001.
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.
3. Большая психологическая энциклопедия. – М.: Эксмо, 2007.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent. – 2016.